Fuqaroning g'amin yegan pushti-panohi,
Yetti iqlim olimlari "ustozim" degan,
Ulug' zotga bir pastkashning masxaraligi
Na tarixda ko'ringan bu va na ertakda. ("Mirzo Ulug'bek")

Zuhra: *"Sigirning qulog'iga tushgan kanaday, erni so'rib yotish ham yaxshi kasb"* – bu yerda qattiq *zaharxanda* bor. "Kanaday so'rib yotish" obrazi orqali ayollarni eriga yopishib yashaydigan, parazit sifatida tasvirlash orqali masxara qiladi. Bu ochiq istehzo.

Oqila: *"Xotin degan nomga isnod keltiradigan makiyonlar borligiga xafa bo'laman"* – bu ham zaharxanda ohangida aytilgan. "Makiyon" (tovuqqa nisbatan) so'zi ayollarning sha'nini kamsituvchi metafora sifatida qo'llangan. Bu ham *haqoratli piching,* ijtimoiy tanqid darajasiga ko'tarilgan. Bu dialog orqali muallif jamiyatda ayollarning ijtimoiy mavqei, erkaklarga qaramlik masalasini *satira va istehzo vositasida* fosh qiladi.

Abdurazzoq nutqi: *"Mamlakatning hukmdori va qiblagohi, fuqaroning g'amin yegan pushti-panohi..."* – bu yerda, dastlab, *balandparvoz epitetlar* va *mubolag'a* orqali ulug' hukmdor madh etilayotgandek ko'rinadi. Ammo keyin *"Ulug' zotga bir pastkashning masxaraligi na tarixda ko'ringan bu va na ertakda",* degan o'rinda *istehzoli teskari ta'sir* paydo bo'ladi: ya'ni, shuncha ulug' hukmdorni pastkash odamning kamsitishi – *kulgi va masxara*ga sabab bo'ladi. Bu nutqda *sarkazm kinoya bilan uyg'unlashib,* siyosiy-huquqiy adolatsizlik, jamiyatdagi mantiqsiz holatlar tanqid qilinadi.

"Og'riq tishlar"dagi misol *ayollar sha'niga nisbatan ijtimoiy tanqid.* "Mirzo Ulug'bek"dagi misol *ulug' hukmdorning qadrsizlantirilishi ustidan istehzo.* Ikkisida ham zaharxanda oddiy kulgidan chiqib, *keskin tanqid va haqorat darajasiga* ko'tarilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, sarkazm dramatik matnning badiiy qatlamini boyitib, uning ijtimoiy ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Ular personaj nutqini jonli, ishonarli va ta'sirchan qiladi, tomoshabinga esa nafaqat voqealarni kuzatish, balki ulardan ma'naviy xulosa chiqarish imkonini beradi. Demak, o'zbek dramaturgiyasi namunalarida sarkazm badiiy maqsadga xizmat qiluvchi, dramatik konfliktni kuchaytiruvchi hamda tomoshabinga estetik zavq bag'ishlovchi muhim uslubiy vosita sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). https://izoh.uz/word/istehzo
(2). https://uz.wikipedia.org/wiki/arkazm#cite_note-1
(3). Crus D.A. (1986). Lexical semantics. Cambridge University Press, p. 322.
(4). Lyons J. (1977). Semantics (Vol. 2). Cambridge University Press, p. 550.
(5). Lakoff G. (1987). Women, Fire, and Dangerous Things. University of Chicago Press, p. 43.
(6). Booth, W.C. (1974). A Rhetoric of Irony. University of Chicago Press. p. 292.
(7). Виноградов В.В. (1953). О языке художественной литературы. М., Гослитиздат, с. 256.
(8). Апресян Ю.Д. (1974). Лексическая семантика. Синонимические средства языка. М., "Наука", с. 122.
(9). Булыгина Т.В., Шмелев А.Д. (1990). Лингвистическая концепция подтекста. М., "Наука", с. 47; Кубрякова Е.С. (1996).
(10). Калинин А.В. Лексика русского языка. М., МГУ, 1978, 232 с.
(11). Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Т., 1966.
(12). Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент, "Фан", 1975, 136-бет.
(13). Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya). Toshkent, 2021, 148-bet.
(14). Қурбониязов Г. Ҳозирги ўзбек ва қорақалпоқ адабий тилларидаги қаттиқ, қатты лексемаларининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз. дисс., Тошкент, 1998, 129-бет.
(15). Розиқова Г.З. Ўзбек тилида синтактик полисемия. Филол. фан. номз. дисс., Фарғона, 1999, 79-бет.

Odilov Orifjon Odiljon o'g'li (Jizzax davlat Pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: orifjon-odilov.mail.ru)

RUHIYAT TASVIRIDA ONG OQIMINING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Nega?" hikoyasi misolida ong oqimi usulining badiiy-falsafiy va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali qahramon ichki kechinmalari, ijtimoiy adolatsizlik, urush fojiasi hamda inson ruhiyatining murakkab qatlamlari izchil yoritilgan.*

Kalit so'zlar*: ong oqimi, ruhiyat tasviri, ichki monolog, psixologik nasr, modernizm, Vilyam Jeyms.*

Одилов Орифжон Одилжон угли (независимый исследователь Джизакского государственного педагогического университета; e-mail: orifjon-odilov.mail.ru)

РОЛЬ ПОТОКА СОЗНАНИЯ В ИЗОБРАЖЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ

Аннотация. *В статье на примере рассказа Уткира Хошимова "Почему?" анализируется художественно-философское и психологическое значение метода потока сознания. С помощью данного приема раскрываются внутренние переживания героя, социальная несправедливость, трагедия войны и сложные слои человеческой психики.*

Ключевые слова: *поток сознания, изображение психологии, внутренний монолог, психологическая проза, модернизм, Уильям Джеймс.*

Odilov Orifjon Odiljon ugli (Independent Researcher Jizzakh State Pedagogical University; e-mail: orifjon-odilov.mail.ru)

THE ROLE OF STREAM OF CONSCIOUSNESS IN THE DEPICTION OF PSYCHOLOGICAL STATE

Annotation. *This article analyzes the artistic-philosophical and psychological significance of the stream-of-consciousness technique using O'tkir Hoshimov's short story "Why?" as an example. Through this method, the protagonist's inner experiences, social injustice, the tragedy of war, and the complex layers of human psyche are consistently revealed.*

Keywords: *Stream of consciousness, psychological portrayal, inner monologue, psychological prose, modernism, William James.*

Kirish (Introduction). O'tkir Hoshimov ijodi o'zbek nasrida zamon tashvishlari va ijtimoiy muhitning shaxs ongiga bosimi kabi muhim masalalarni yoritib berishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, bir qator asarlarida ong oqimi uslubidan foydalangani e'tiborga molik.

XX asr boshlaridan jahon adabiyotida shakllangan ong oqimi yo'nalishi inson tafakkuri, ichki nutq, ong ostidagi fikrlar va eslanmalarni mantiqsiz, betartib, tabiatdagi oqimga o'xshash holda ifodalash tamoyiliga asoslangan. Bu uslub o'quvchini qahramonning tashqi harakatlaridan ko'ra ichki dunyosiga yaqinlashtiradi. Bunda fikrlar bir-biriga ulanib ketadi, zamon chegaralari buziladi, real vaqt bilan xotiralar orasida keskin almashinuv sodir bo'ladi. Qahramon ichki monologining tashqi tasvirdan ustunligi, ruhiy to'lqinlarning mantiqsiz, ammo tabiiy oqimda berilishi ong oqimining asosiy belgilari hisoblanadi. Bu usul mualliflga qahramon ruhiyatini jonli, tabiiy va izchil tasvirlash imkonini beradi [1;209–210-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bu yo'nalishning paydo bo'lishi modernizm bilan bevosita bog'liq. XIX asr oxiridan boshlab, inson shaxsiyati, ichki dunyosi, ong va ruhiyati masalalari adabiyot va san'at markaziga chiqdi. Pisoxologiya fanida ilk bor Vilyam Jeyms "ong oqimi" (stream of consciousness) atamasini qo'llashi va ko'p o'tmay Zigmund Freyd va Karl Yungning inson ongi, ong osti haqidagi nazariyalari keyinchalik adabiy asarlarga ko'chdi.

O'zbek adabiyotiga esa 80-yillarda kirib keldi. Adabiyotshunos olim N.Xolliyevning fikricha, o'zbek adabiyotining yasharish, yangilanish ehtiyoji 60-yillarning o'rtalaridan poeziya bilan boshlangan. O'sha davr milliy adabiyotimizning navqiron vakillari insonning ruhiy tang holatini, odamda kechadigan nevroz hodisalarini, ongsizlik, ong va odob muammolari tabiati bilan bog'liq manzaralarni ilg'ashga va aynan ko'rsatishga urina boshlashgan [2;67–68-b.]. Tilovoldi Jo'rayevning fikricha esa "80-yillar o'zbek nasrida yangi, ong oqimi deb ataluvchi adabiy yo'nalish paydo bo'ldi" [3;54+b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Darhaqiqat, O'tkir Hoshimov ijodida ham 80-yillar oxiri va 90-yillar boshidan ong oqimi unsurlari ko'zga tashlanadi. Xususan, 1989-yilda yaratilgan "Nega?" hikoyasi ana shu psixologik yo'nalishning yorqin namunalaridan biri, deyish mumkin.

Hikoya markazida oddiy turmush kechirayotgan mehnatkash xalqning tipik vakili – Hamidullaning ichki kechinmalari turadi. Muallif voqealarni qahramonning ichki monologi, xotiralari, tushunchalari va tasavvurlarini ong oqimi tarzida bayon etadi.

Odatiy kunlarning birida ishga yo'l olgan Hamidullaning trolleybusdagi o'ylari ichki dunyosidagi murakkab ruhiy kechinmalar bilan uzviy bog'langan. Tashqi harakat – trolleybusda ketayotgani, yo'lovchilar, nazoratchilar haqida o'y surishi voqelikning yuzaki qatlami bo'lsa, asl dramatizm qahramon ongidagi chayqalishlarda tug'iladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hikoyada voqea deyarli sodir bo'lmaydi. Hamidulla o'y suradi, xotiraga cho'madi, hayotining og'ir damlarini eslaydi. Ammo aynan shu statik holat orqali adib qahramonning butun umrini, bosib o'tgan murakkab yo'lini, orzu-armonlarini bir lahzada ochib beradi.

Dastlab, trolleybusdagi oddiy e'lon ("Keyingisi – Beshinchi mavze! Pattalarni chekichlashni unutmanglar. Yo'lda nazoratchi bor") qahramonni nazoratchilar haqidagi fikrlarga olib kiradi [4;53-b.].

Nazoratchilar, ular pattasiz yo‘lovchini ushlasa jarimaga tortishi haqidagi o‘y, o‘z navbatida, qahramonni yoshlar tarbiyasi haqida mulohaza yuritishga undaydi: “Kontrolyor ko‘rinmaydimi? Daf bo‘lsin. Bolalarga achinadi-da, odam. Talabada pul nima qilsin? Shunaqa-ku, yelkasiga magnitofon osib, chiroyli-chiroyli qizlarni qo‘ltiqlab yuradigani qancha. Magnitofonga yetgan pul pattaga yetmaydimi? Yo‘-o‘q, olmaydi. Yuradi otasining soyayi davlatida magnitofon varanglatib!” [4;54-b.]. Adib mana shu nuqtadan o‘quvchini hikoyaning asosiy g‘oyasiga va oldinda kutilajak fojiaga tayyorlay boshlaydi.

Hamidulla – ota. Uning ham oliygoh talabasi bo‘lgan o‘g‘li bor. Faqat hozir armiyada. Hamidulla ota sifatida o‘g‘lining kamolidan umidvor: “Xudoga shukr, Rahmatillasi yaxshi bola chiqdi. Ichmaydi, chekmaydi, yomon yo‘lga yurmaydi. Uyam shu yerda o‘qirdi. Biofakda. Birinchi kursni bitirib, armiyaga ketdi. Nasib etsa, keladi erta-indin…” [4;54-b.].

Shu payt yomg‘ir yog‘a boshlashi, Rahmatilla 10 yoshga to‘lgan kunni yodiga soladi. O‘sha yomg‘irli tunda yuz bergan falokat, keyingi voqealar sabab chappasiga aylanib ketgan taqdir kechmishlari xotiralar quyuni bo‘lib, yopirilib keladi.

“Obbo! Yomg‘ir boshlandi-ku… Qamalishiga yomg‘ir sababchi bo‘lgan. Yomg‘irmas-ku, “Volga” haydardi. TNO. Vazirni olib yurardi. O‘sha kecha xo‘jayin idorada ancha o‘tirib qoldi. Keyin tag‘in “bir joyga” bordi. “Severo-Vostok”dagi to‘qqiz qavatli uy tagida Hamidulla motorni o‘chirib, uzoq o‘tirdi. O‘rganib qolgan. Avval ham ko‘p kelishgan, “Severo-Vostok”ka… Keyin xo‘jayinini uyiga oborib qo‘ydi. Yarim kechadan oshgan edi. Yomg‘ir yog‘ib turuvdi. Hamidulla shoshilardi. Rahmatillaning tug‘ilgan kuni edi. O‘n yoshga chiqqan kuni. Palakatni qarang: plash kiygan odam ko‘chani kesib o‘tayotganini kech payqabdi…” [4;54–55-b.].

Muallif shu orqali voqealar tizginini Surxondaryo tomonlardagi axloq tuzatish lageriga buradi. “Bir begunoh fuqaroga og‘ir tan jarohati yetkazgani uchun, davlat mashinasidan o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida foydalangani uchun” ikki yilga “kesilgan” Hamidulla o‘sha yoqlarda jazo o‘taydi.

Hayraton ko‘prigidan afg‘on zaminiga olib kirilayotgan sovet qurollarini ko‘radi: “Avvaliga yarmi ochiq vagonlarga ortilgan yuklarning usti brezent bilan o‘rab qo‘yilgani uchun hech balo ko‘rinmasdi. Keyin brezent qoplamasiz tashiydigan bo‘lishdi. Tanklar, zambaraklar, BTRlar. Koloniyada siyosiy axborot bo‘ldi. Imperializm malaylari Afg‘oniston Demokratik Respublikasidagi “Savr inqilobi”ni bo‘g‘ib tashlamoqchi bo‘pti. Shonli sovet jangchilari o‘zining baynalminal burchini sharaf bilan bajarishga kirishibdi” [4;56-b.].

Eng muhimi, ong oqimi qatlamlari orqali Rahmatillaning Afg‘onistonda xizmat qilayotgani ham oydinlashadi: “Qarang, bir narsa yetti uxlab tushiga kirmabdi. Oy o‘tadi, yil o‘tadi, payti kelib sening o‘g‘ling ham Afg‘onistonga boradi, baynalminal burchini bajaradi…” [4;56-b.].

Bu orada trolleybus “G‘uncha” bekatiga yetib keladi. O‘z navbatida, Hamidullaning ong oqimi bolalik davriga qaytadi. Chunki uning ota hovlisi shu mavzeda joylashgan edi.

Otasini xotirlaydi. Uning injiq fe’li, zilzila voqealari otasining nogironligiga ulanadi. Otaxon Ikkinchi jahon urushida bir oyog‘idan ayrilib qaytgan, qo‘ltiqtayoqda yurardi. Tizzadan yuqorisi saqlanib qolgan, allaqanday ingichka tortib ketgan, uchi to‘mtoq, ko‘kimtir-qizg‘ish oyoq qahramon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Shimining pochasini qayirib, oqarib ketgan eski qayishiga qistirib olgancha, hakkalab borib, devorga tirab qo‘yilgan qo‘ltiqtayog‘iga yopishadigan otasining g‘arib qiyofasi kelgusida yuz berajak fojia ko‘lamini yanada quyuqlashtiradi. Bundan tashqari, Hamidulla ichki sezim (intuitsiya) vositasida bo‘lajak falokatni g‘ayrishuuriy his qilayotganidan ham darak beradi.

Otasining nogironligi, buzilayotgan uy, adolat qidirib yugurayotgan cholning fig‘oni qahramon ruhida chuqur iz qoldirgan. Ong oqimi bu izlarni kutilmaganda yuzaga chiqaradi.

Shu o‘rinda otasi bilan bog‘liq tush motivi ong oqimi bilan qorishib, o‘ziga xos ruhiy manzara hosil qilganini ko‘ramiz: “Qiziq, bugun otang tushingga kiribdimi? Qamoqda yotganingda o‘lib ketgan otang? “Qo‘ltiqtayog‘im qani, nega yo‘qotding”, deb baqiribdimi? Tavba, otasi mayka-tursida emish. Kesilgan chap oyog‘i nuqul likillarmish. “Top! Hozir topasan tayog‘imni, bo‘lmasa yuqoriga chiqaman, men frontovikman, deyman! Sen ham arzimga quloq solmasang, lichna Oliy Bosh qo‘mondonning o‘ziga arz qilaman”, dermish” [4;58-b.].

Tush ba’zan qahramon ruhiyatida yuz berayotgan evrilishlar, ichki xavotir bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Hamidullaning ushbu tushi ham ong oqimi avvalida kelgan o‘g‘li bilan bog‘liq hadik hosilasi. Yashirin hissiyotning ong ostidan siqib chiqarilishi natijasida u Afg‘onistonda urushda yurgan o‘g‘liga oid xavotirlarini nogiron otasining qiyofasi va uning qo‘ltiqtayog‘i bilan bog‘liq tarzda ko‘radi. Hamidulla marhum otasining allaqachonlar yo‘qolgan qo‘ltiqtayog‘i o‘g‘liga ham zarur bo‘lib qolishidan qo‘rqadi. Bunday noxush xayollarni quvishga intiladi. Shu sabab ong oqimi yana umidli o‘ylarga almashadi: “O‘zingning

xotining boshqacha-da! Yigirma bir yil turmush qilib, bir marta labiga bo‘yoq surmadi-ya. Ikki gapning birida “Rahmatim kelsa, hafta o‘tmay to‘y qilamiz”, deydi. Ko‘rpa-ko‘rpachalar tayyor, kelin sarpolar tappa-taxt. Shu kunlarga yetkazsin. Mayli, hafta, o‘tibmas-ku, bahorda… Umr savdosida bu” [4;59-b.].

Shunday bo‘lsa-da, xotinini eslashi bilan ichki xavotiri yana kuchayadi: “Xudodan ham o‘rgildim, yaxshi ko‘rgan bandasidan dardini ayamas ekan-da! Bugun tag‘in nolidi: “Nafasim qisyapti, adasi, yomg‘ir yog‘adi shekilli…” Shoshma, tag‘in nima dedi? “Rahmatingiz tushimga kiribdi, oyog‘im sovqotib ketyapti, adamga ayting, menga etik olib bersinlar, deyapti. Bolamning joni sog‘mikan?” [4;59-b.]. Mana shu nuqtada o‘quvchi Rahmatilla bilan fojia yuz berganini aniq his etadi. Muallif ong oqimidagi tartibsiz ketma-ketlik orqali asta-sekin, ammo qat’iy dinamik tarzda bunga erishadi.

Hamidulla bir vaqtning o‘zida mehribon ota, chorasiz oila boshlig‘i, oddiy mehnatkash, tasodifan jinoyat sodir etgan inson, jamiyatdan o‘z o‘rnini topa olmayotgan odamdir. Bu ko‘p qatlamli ruhiy holat faqat ong oqimida to‘liq ochiladi. Chunki tashqi harakatlar qahramonning ichki parokandaligini ifoda eta olmaydi.

Ishga yetib kelgan Hamidulla bir muddat ong oqimi ta’siridan chiqadi. Harbiy gospitalda ishlaydigan sobiq sinfdoshi – Muhammadminor to‘satdan yo‘qlab kelishi, “Yur buyoqqa! Vaqt ziq” deya noma’lum tomonga boshlab ketishi ortidan yuzaga kelgan mavhumlik qahramonni yana ong oqimiga olib kiradi.

G‘ishtin devor, panjara darvoza, yomg‘ir, gospitalning serdaraxt hovlisi, pastak binolar dilini g‘ash qiladi: “Ming la’nat, qarg‘a muncha ko‘p! Muncha nolish qiladi bu maraz maxluqlar!”, “O‘g‘lim? Oyog‘i nega chalishadi? Nega mador yo‘q? Tezroq!” deya o‘ylaydi [4;61–62-b.].

Ushbu nuqtada kulminatsiyasi o‘z cho‘qqisiga chiqqani Hamidullaning ong oqimi shiddatli tus olganida ham ko‘rinadi. Temir karavotda yotgan chalajon o‘g‘liga ko‘zi tushishi bilan uni Afg‘onistonga kuzatib qo‘ygan kun, o‘shanda quchoqlashib xayrlashgani, qamalgan kuni o‘g‘li yig‘lamagani, faqat yerga qarab turgani, balog‘atga yetgach devdek yigit bo‘lib ulg‘aygani bir soniya ichida ko‘z oldidan o‘tadi.

Ammo Hamidulla hali ham haqiqiy holatni anglamagan edi. Oxirgi lahzada o‘g‘li shunchaki, yarador emas, balki majruhga aylangani, yashab ketganida ham endi hech qachon risoladagidek umr kechirmasligini tushunadi. Bu uning ruhiyatiga o‘nglanmas zarba beradi:

“Shunda… shunda, to‘shakning yarmi bo‘sh ekanini payqadi.

O‘g‘lining ikkala oyog‘i yo‘q edi. Tizzadan emas, undan ham yuqoriroqdan. Ko‘kragidan bu yog‘i doka bilan o‘rab tashlangan…

– Nega? –dedi ingrab. –Nega? Insoflaring bormi? Aytinglar, bolam nima gunoh qiluvdi? –Yerga muk tushdi-da, namiqqan taxta polni qo‘shqo‘llab ojiz mushtlay boshladi.

– Nega? Nega? Nega-a-a!!!” [4;63-b.].

Yozuvchi kitobxonni ushbu fojiaga butun hikoya davomida bosqichma-bosqich tayyorlaydi. Bu tayyorgarlik to‘satdan sodir bo‘ladigan voqealar orqali emas, balki mayda, bir qarashda ahamiyatsiz tuyulgan psixologik signallar orqali amalga oshadi. Muallif, ayniqsa, yog‘ingarchilik, tush, nogironlik, urush, yo‘qotish kabi motivlarni ong oqimi bilan chambarchas bog‘lab, ularni takrorlanuvchi ruhiy impulsga aylantiradi. Shu tariqa, o‘quvchi oxirgi sahnaga tayyor holda yetib keladi: fojia to‘satdan emas, balki muqarrar tusda qabul qilinadi. Eng oxirgi badiiy detal – xalqimizda yomon alomat deb qabul qilingan qarg‘a fojiani yanada aniq va tabiiylashtiradi. Bu esa ong oqimi usulining eng muhim xususiyati–emotsional zarbani bosqichma-bosqich kuchaytirish imkoniyatini namoyon qiladi.

Demak, “Nega?” hikoyasi o‘zbek adabiyotida ong oqimi yo‘nalishidan samarali foydalanilgan psixologik asarlardan biri deyishga asoslar bor.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida ong oqimi yo‘nalishidan mahorat bilan foydalanib, qah-ramon ichki ruhiyatini markazga chiqaradi. Xususan, “Nega?” hikoyasida Hamidullaning o‘y-xotiralari, tushlari, o‘tmish lavhalari va hozirgi kechinmalari tabiiy oqimda berilib, inson ruhining murakkab qatlamlarini yanada chuqur yoritishga xizmat qilgan.

Ikkinchidan, ong oqimi usuli hikoyaning ijtimoiy mazmunini kuchaytiradi. Qahramonning ichki monologi orqali sovet davri tartibsizligi, adolatsizlik, urush fojialari, oddiy odamning jamiyatdagi o‘rni kabi muammolar bilvosita yoritiladi. Bu esa asarga realistik mazmun bilan birga kuchli psixologik dramatizm baxsh etadi.

Uchinchidan, ong oqimi orqali Hamidullaning ko‘p qirrali ruhiy holati – pushaymonlik, umid, iztirob, o‘tmish jarohatlari va o‘g‘li taqdiri uchun xavotir kabi kechinmalar bir vaqtning o‘zida ochiladi. Shu

tariqa, adib inson ruhiyatining eng nozik, eng teran qatlamlarini tasvirlashda ong oqimi metodining badiiy imkoniyatlarini to‘la namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (references):

(1). Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, “Академнашр”, 2013, 408-бет.

(2). Холлиев Н. Эрк ва жилов кураши. Навқирон насримизга бир назар. “Ёшлик”, 1990, 6-сон.

(3). Жўраев Т. Онг оқими. Модерн. Фарғона, “Фарғона”, 2009, 204-бет.

(4). Hoshimov O‘. Turmushning to‘rt tirgagi. Toshkent, “Meriyus”, 2015, 424-bet.

Sabirova Sevara Baxtiyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filalogiya va san’at fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

“OSHIQNOMA” TURKUMIDAGI DOSTONLAR BADIIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING XALQ OG‘ZAKI IJODIDAGI O‘RNI

Annotatsiya*. Mazkur ilmiy-uslubiy maqolada “Oshiqnoma” turkumiga mansub dostonlarning poetik tabiati, badiiy tasvir vositalari, obrazlar xarakteri, sujetning epik va lirik qatlamlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dostonlarning xalq og‘zaki ijodi taraqqiyotidagi o‘rni, ularning tarbiyaviy, estetik va ma’naviy funksiyalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada turkum dostonlarining milliy mafkura, badiiy tafakkur va adabiy an’analardagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: “Oshiqnoma” turkumi, doston, badiiyat, epik an’ana, lirik tasvir, xalq og‘zaki ijodi.*

Сабирова Севара Бахтиёровна (независимый исследователь кафедры «Узбекский язык и литература» филологического факультета Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

ПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭПИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ СЕРИИ «ОШИКНАМА» И ИХ РОЛЬ В НАРОДНОЙ УСТНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *Данная научно-методологическая статья анализирует поэтическую природу эпосов, принадлежащих к серии «Ошикнома», средства художественного изображения, характер образов, эпические и лирические слои сюжета. Также рассматривается роль эпосов в развитии народного устного искусства, их воспитательные, эстетические и духовные функции. В статье подчеркивается значение эпосов серии в национальной идеологии, художественной мысли и литературных традициях.*

Ключевые слова*: серия «Ошикнома», эпос, искусство, эпическая традиция, лирический образ, народное устное искусство.*

Sabirova Sevara Bakhtiyorovna (Independent researcher of the Department of "Uzbek Language and Literature" of the Faculty of Philology and Arts of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

POETIC FEATURES OF THE EPIC POETRY OF THE “ASHIKHNAMA” SERIES AND THEIR ROLE IN FOLK ORAL LITERATURE

Annotation. *This scientific-methodological article analyzes the poetic nature of the epics belonging to the “Ashiqnama” series, means of artistic depiction, character of images, epic and lyrical layers of the plot. It also discusses the role of epics in the development of folk oral art, their educational, aesthetic and spiritual functions. The article highlights the significance of the epics of the series in national ideology, artistic thought and literary traditions.*

Keywords: *“Ashiqnama” series, epic, art, epic tradition, lyrical image, folk oral art.*

Kirish (Introduction). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishi va rivojida dostonchilik alohida o‘rin tutadi. Dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, badiiy tafakkuri va ma’naviy dunyosini mujassam etgan yirik epik janr sifatida asrlar davomida sayqallanib kelgan. Baxshilar ijrosi orqali og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelgan dostonlar millatning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, axloqiy me’yorlari va estetik qarashlarini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek xalq eposi tizimida “Oshiqnoma” turkumidagi dostonlar sevgi va sadoqat mavzusining markazga qo‘yilgani bilan ajralib turadi. Bu turkumga mansub asarlarda muhabbat shaxsiy hissiyot sifatida emas, balki insonni ma’naviy kamolotga yetaklovchi oliy qad-riyat darajasida talqin qilinadi. “Oshiqnoma” dostonlarida muhabbat insoniylik, vafodorlik, sabr-toqat, ma-tonat va jasorat kabi fazilatlar bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi. Mazkur dostonlar xalqning sevgi haqidagi qarashlarini, axloqiy idealini va estetik didini mujassam etgan holda, epik va lirik